“JASORAT” SEMALI LEKSEMALAR SEMANTIK-STRUKTUR, GENETIK XUSUSIYATLARI

Hurriyat Sharipovna Karimova
Qarshadaryo viloyati, Qarshi tumani 40- umumiy o’rta ta'lim maktabi Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD), dotsent Gulbahor Tojiyeva

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Jasorat” semali leksemalar semantik-struktur, genetik xususiyatlari, Jasorat leksemasini shartli ravishda yaxlit kategoriya sifatida qaralishi hamda ma’naviy jasorat va jismoniy jasorat birliklarini jasorat kategoriyasining tarkibiy qismlari, konseptlari sifatida ajratish mumkin xususida fikr yuritilgan va bu unsurlarning har biri alohida mikrosistemani tashkil etib, o‘z ichiga ko‘plab tushunchalarni olishi bo’yicha xulosalangan.

Kalit so’zlar: til, leksema, semali leksema, genetik xususiyatlar, jasorat, munosabat.

SEMANTIC STRUCTURE, GENETIC FEATURES OF LEXEMAS UNDER THE MEANING OF “COURAGE”

Hurriyat Sharipovna Karimova
Teacher of Uzbek Language and Literature
School 40, Karshi district, Karshadarya region
Supervisor: Ph.D., Associate Professor Gulbahor Tadjiyeva

ABSTRACT

This article discusses the semantic-structural, genetic features of the semantic lexemes "Courage", the conditional integration of the lexeme of Courage, and the fact that the units of spiritual courage and physical courage can be divided into components, concepts of courage category, and each of these elements concluded that it includes many concepts.

Keywords: language, lexeme, semantic lexeme, genetic traits, courage, attitude.

KIRISH

Tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi haqidagi qarashlar so‘z ma‘nosining tadqiqi bilan bog‘liqdir. Olamdagi narsa, voqea-hodisa, harakat hammasi inson ongida tushuncha sifatida aks etadi. Tushuncha esa ma‘no yaxlitligidan iborat tovush tizimida so‘z shaklida namoyon bo‘ladi. Til – borliqni ifodalaydi. Shunday ekan, til bilan borliq uzviy aloqadadir. Til va borliq aloqasiga bo‘lgan munosabatiga yondashuv bo‘yicha bir qancha yo‘nalishlar vujudga keldi. Ularning bir guruhi til va borliq aloqasiga bo‘lgan munosabatga yondashuv masalasida ular uzviy aloqador, til bevosita obyektiv olamni ifodalaydi, degan tezisni bayon qilsa, boshqa faylasuflar, tilning borliq bilan bo‘lgan munosabatini rad etadilar. Tilning borliq bilan bo‘lgan

munosabatini e’tirof etuvchilarning o‘zi ham til borliqni bevosita ifodalaydimi yoki bilvosita ifoda etadimi, degan masalaga turlicha javob beradilar. Bir guruh faylasuflar obyektiv olamni olamni ifodalashda subektning rolini tan oladilar, obyektiv ong orqali tilda o‘z ifodasini topishini bayon qiladilar. Boshqa yo‘nalishdagi faylasuflar esa, til obyektiv olamni bevosita ifodalashini e‘tirof etadilar. Ular jodugar, suv parisi, dev singari afsonaviy tushunchalar borliqda yo‘qligini, ammo uning tilda ifodalanishini, borliq elementlari bilan til birliklari o‘rtasida nomuvofiqlik mavjudligini asos qiladilar. Bugungi kunda falsafiy adabiyotlarda til va borliq munosabatiga bag‘ishlangan asarlarda borliqni tilda ong orqali o‘z ifodasini topishi e‘tirof etiladi. Shuning uchun ham nomlash jarayoni borliq elementlarining ongda aks etishi va bu aks etgan, umumlashgan obrazni tilda o‘z ifodasini topishi bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bizning qurshab turgan borliq inson ongida turli shakllarda aks etadi va til orqali o‘z ifodasini topadi. Inson ongida paydo bo’lgan har qanday fikr, mazmun va shaklga ko‘ra moddiy dunyoning aks etishidan boshqa narsa emas. Bizning o‘rganish obyektimiz moddiy dunyoning predmet – hodisalarigina emas, balki ruhiy hodisalar ham bo‘lishi mumkin. Har qanday ruhiy hodisalar borliqning bilvosita aks etishidir. Chunki har bir tushuncha, fikr va xulosalar moddiy dunyoning aks etilishidir. Shunday qilib, inson moddiy dunyodagi narsa va hodisalarining umumiy va xususiy belgilarini ajratgan holda, ongda aks ettirish imkoniyatiga ega. Inson ongida barcha narsalar bir sistema tarzida jamlanadi. Chunki olamning o‘zi bir sistemadir. Olamning sistemaligi shundaki, u o‘zaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlitlikdir. Bu yaxlitlik kichik butunliklarga bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega. Bizni qurshab turgan olamni tashkil etgan elementlar ma‘lum umumiy belgilarga ko‘ra sinflarga birlashadi hamda sinfga birlashgan elementlar shu sinf tarkibida bir-biridan farqli belgilarga ko‘ra ajraladi. Butun elementlari butunliklar doirasida o‘zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo‘lsa, ayni chog‘da, butunlik bilan butunlik katta butunlik doirasida uning elementlari sifatida o‘zaro ana shunday munosabatda bo‘ladi. Shunday qilib, obyektiv olam oddiydan murakkabga qarab sinflarga birlashuvchi va ayni paytda, bo‘laklarga bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab sistemadir. Masalan, hayvonot olami tirik mavjudotlar sinfida o‘simliklar dunyosi, insoniyat dunyosi kabi sinfning elementlari bilan o‘zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo‘lsa, tirik mavjudot uchun bo‘lak vazifasini bajaradigan har qaysi qism o‘zi mayda elementlarni birlashtirib, undan kichikroq butunlikni, nisbiy kichik sistemani tashkil qiladi. Jumladan, hayvonot olami turli belgilarga ko‘ra turli guruhlarni tashkil etadi: sut emizuvchilar va sut emizmaydiganlar; oyoq bilan yuruvchilar va sudraluvchilar; suv hayvonlari va quruqlik hayvonlari va boshqalar.

NATIJALAR

Shu jumladan, jasorat semali leksemalar 400 ga yaqin ekanligi aniqlandi. “O‘zbek tilining izohli lug’ati” 1-jildida *jasorat* leksemasining 18 marta, 2-jildida 30 marta, 3-jildida 10 marta, 4-jildida 9 marta, 5-jildida 13 marta uchraganligini kuzatish

mumkin. Bu holat *jasorat* leksemasining o‘zbek ijtimoiy ongida qanchalik faol ekanligini ko‘rsatadi.

Jasorat leksemasini shartli ravishda yaxlit kategoriya sifatida qarasak *ma’naviy jasorat* va *jismoniy jasorat* birliklarini *jasorat* kategoriyasining tarkibiy qismlari, konseptlari sifatida ajratish mumkin. Bu unsurlarning har biri alohida mikrosistemani tashkil etib, o‘z ichiga ko‘plab tushunchalarni olishi mumkin. Masalan, *ma’naviy jasorat* unsuri *barkamol, komil qobiliyatli jur’at vatanparvar qahramon*; *jismoniy jasorat* unsuri *kuchli mard bardam dovyurak jangovor* kabi ichki kategoriyalarga ega. Bularning har biri o‘z o‘rnida ichki mikroguruhlarga bo‘linadi.

MUHOKAMA

Jasorat semali leksemalar grammatik jihatdan , asosan, sifat, ot, fe’l, ravish turkumlariga mansub. Bunday birliklar sirasida ravish va fe’l turkumiga oid so‘zlar miqdor jihatdan unchalik ko‘p emas. Masalan: ravish- ***bahodirlarcha, bahodirona, botirlarcha, dadilona, dohiyona, dohiilarcha, jasurona, yigitlarcha, mardlarcha, mardona, paxlavonlarcha, rustamona, rustamcha, fidokorona;*** **fe’l-** ***bardamlashmoq, botirlanmoq, dadillashmoq, jasoratlanmoq, jasurlanmoq, intilish, kuchaymoq, tetiklamoq, faxrlanmoq, shiddatlanmoq, eplamoq, yuksalish, quvvatlanmoq, qo‘qmas, g‘ayratlanmoq*** **qo‘llanadi.** Jasorat semali leksemalar ko‘pchiligi sifat va ot turkumiga mansub: sifat- ***azimkor, bardam, vajohatli, dovyurak, etuk, iste’dodli, kelbatli, layoqatli, mard, salohiyatli, g‘ayratchan, qat’iyatli;*** **ot-** ***abjirlik, azimat, barkamollik, baquvvatlik, dadillik, donishmand, jasurlik, zabardastlik, zakovat, iqtidor, kuch, mukammallik.***

Jasorat semali leksemalar genetik jihatdan ikki guruhga bo‘linadi: a) o‘z qatlam birliklari: ***azimkor, aqllilik, barkamol, baquvvatlik, botirlik,*** *burch,* ***buyuk,*** *devyurak,* ***jasurlik,*** *zo‘r, ilg‘or;* b) o‘lashma qatlam birliklari ***madad, savlat, sobit, shavkat, shiddat zabardast, mard, navqiron, paxlavon, polvon bahodir, botir*** **kabilar.**

XULOSA

Jasorat semali leksemalarning o‘zlashma qatlamida arabiy so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi. O‘z qatlamga oid ko‘pchilik so‘zlarning asosi ham arabiy qatlamga mansub: *avj(ida), azim(kor), (bar)kamol, salohiyat(li), fidoyi(lik), fidokor(lik)*

Jasorat semali leksemalar struktur jihatdan soda va murakkab so‘zlarning nisbati o‘ziga xos: a) sodda so‘zlar: ***polvon, ma’rifatchi, mahoratli, muvaffaq, pahlavon*** b) murakkab so‘zlar: ***oliymaqom, oliyhimmat, bekam-ko‘st*** **kabilar. Sodda so‘zlarni o‘z navbatida sodda tub (*komil, mard, sobit*) va sodda yasama (*kuchli, muvaffaqiyatli, saodatmand*), murakkab so‘zlarni qo‘shma (*oliymaqom, oliyhimmat*), juft (*bekam-ko‘st*) va takroriy so‘zlarga ajratish mumkin.** Jasorat semali leksemalar ichida takroriy so‘zlar kuzatilmadi.

Jadval 1.

Jasorat	
Ma’naviy jasorat	**Jismoniy jasorat**

Barkamol	**komil**	**qobiliyatli**	**Jur'at**	**vatanparvar**	**qahramon**	**kuchli**	**mard**	**bardam**	**dovyurak**	**jangovor**
Alloma donishmand geney dohiy daho	*Zakovat ilg'or yetuk*	*Salohiyatli talantli mahoratli layoqatli*	*Azimat Shijoat shudli G'ayratli G'ujur shaxt*	*Elparvar xalqparvar elsevar hurriyatchi*	*Qudratli Fidokor qodir madadkor*	*Baquvvat zabardast quvvatli*	*Botir polvon jasur g'uch*	*Tetik Dadil tinka navqiron*	*Dovchi Qo'rqmas paxlavon*	*Yovqurlik Vajohatli shiddatkor*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент. Фан, 2007. – Б. 255.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I т. Магруфова З.М. Таҳрири остида – М.: Русский язык, 1981. 228-б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилд. Мадвалиев А. таҳрири остида. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 624-б.
4. Rasulov R. (2020). Kelajak – til sohiblariniki. *Til va adabiyot ta'limi, 7*(7), 63-64.
5. Ботирова Ш.И. (2020). Об обучении студентов филологии основам анализа и литературным терминам. *Преподавание языка и литературы, 7*(7), 82-83.
6. Botirova, S. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. *Asian Journal of Multidimensional Research, 9*(4), 16-20.
7. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., & Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews, 7*(12), 166-169.
8. Botirova Sh.I. (2020). For Students of Philology Teaching Literary Conditions of Learning Basic Analysis. *Science and Education*, *1*(5), 110-113.
9. Botirova Sh.I. (2020). Problematic Aspects Related To the Use of Educational Technologies And Interactive Methods In The Classroom. *International Journal of Multidisciplinary Research, 6*(8), 539-541.
10. Botirova Sh.I. (2020). The Relationship Between Symbolically Figurative Interpretation And Psychology. *Asian Journal of Multidimensional Research, 9*(9), 12-15.
11. Botirova Sh.I. (2018). Methodology And Technology of Social And Pedagogical Activity. *Теория и практика современной науки*, *1*(31), 14-16.
12. Botirova Sh.I. (2018). The Role of Artistic Literature In The Spiritual Development of Youth. *Мировая наука, 5*(14), 26-28.
13. Botirova Sh.I. (2019). Poetics of artistic psychologism. *Теория и практика современной науки, 2*(44), 31-34.
14. Botirova Sh.I. (2019). Role of psychological display in characteristic of characters in the novel of an Ulugbek Hamdam. *Monografia pokonferencyjna. Science, research, development #14. Philology, sociology and culturology. V.02, London. 27.02.2019-28.02.2019,* 86-90.
15. Botirova Sh.I. (2018). Symbolic-figurative talk and psychological relations. *«Экономика и социум». 12*(55), 114-118.

REFERENCES

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент. Фан, 2007. – Б. 255.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I т. Магруфова З.М. Таҳрири остида – М.: Русский язык, 1981. 228-б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилд. Мадвалиев А. таҳрири остида. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 624-б.
4. Rasulov R. (2020). Kelajak – til sohiblariniki. *Til va adabiyot ta'limi, 7*(7), 63-64.
5. Ботирова Ш.И. (2020). Об обучении студентов филологии основам анализа и литературным терминам. *Преподавание языка и литературы, 7*(7), 82-83.
6. Botirova, S. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. *Asian Journal of Multidimensional Research, 9*(4), 16-20.
7. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., & Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews, 7*(12), 166-169.
8. Botirova S. I. (2020). For Students of Philology Teaching Literary Conditions of Learning Basic Analysis. *Science and Education*, *1*(5), 110-113.
9. Botirova S. I. (2020). Problematic Aspects Related To the Use of Educational Technologies And Interactive Methods In The Classroom. *International Journal of Multidisciplinary Research, 6*(8), 539-541.
10. Botirova S. I. (2020). The Relationship Between Symbolically Figurative Interpretation And Psychology. *Asian Journal of Multidimensional Research, 9*(9), 12-15.
11. Botirova S. I. (2018). Methodology And Technology of Social And Pedagogical Activity. *Теория и практика современной науки, 1*(31), 14-16.
12. Botirova S. I. (2018). The Role of Artistic Literature In The Spiritual Development of Youth. *Мировая наука, 5*(14), 26-28.
13. Botirova S. I. (2019). Poetics of artistic psychologism. *Теория и практика современной науки, 2*(44), 31-34.
14. Botirova S. I. (2019). Role of psychological display in characteristic of characters in the novel of an Ulugbek Hamdam. *Monografia pokonferencyjna. Science, research, development #14. Philology, sociology and culturology. V.02, London. 27.02.2019-28.02.2019,* 86-90.
15. Botirova S. I. (2018). Symbolic-figurative talk and psychological relations. *«Экономика и социум». 12*(55), 114-118.